



DAVLAT BOSHQARUVIDA SHAFFOFLIK VA OCHIQLIK KORRUPSIYANING OLDINI OLIISH OMILI SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22131414>

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti

“Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi” yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Valiyeva Parizoda Dilshod qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat boshqaruvida shaffoflik va ochiqlik tamoyillarining korrupsiyaning oldini olishdagi o'rni va ahamiyati tahliliy yondashuv asosida yoritiladi. Ochiq va hisobdor boshqaruv tizimi fuqarolarning davlat organlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlash bilan birga, qaror qabul qilish jarayonlarining oshkoraligini ta'minlaydi. Maqolada shaffoflikning asosiy komponentlari – axborotga erkin kirish, ochiq ma'lumotlar siyosati, jamoatchilik nazorati va raqamli texnologiyalarning roli keng tahlil qilinadi. Shuningdek, korrupsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillar va ularni kamaytirishda institutsional islohotlarning o'rni izohlanadi. Davlat boshqaruvida ochiqlik darajasining oshishi korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qilishi asoslab beriladi. Shu bilan birga, ilg'or tajribalarni joriy etish orqali shaffof boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Maqolada zamonaviy boshqaruvda ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish barqaror rivojlanishning muhim sharti ekani alohida ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: davlat boshqaruvi, shaffoflik, ochiqlik, korrupsiya, hisobdorlik, jamoatchilik nazorati, ochiq ma'lumotlar, raqamli boshqaruv, institutsional islohotlar, axborotga kirish erkinligi

Annotation: This article examines the role and significance of transparency and openness in public administration as key factors in preventing corruption, based on an analytical approach. An open and accountable governance system not only strengthens public trust in state institutions but also ensures the transparency of decision-making processes. The article highlights the main components of transparency, including access to information, open data policies, public oversight and the role of digital technologies. It also explains the factors that contribute to the emergence of corruption, the importance of institutional reforms in reducing them. It is substantiated that increasing the level of openness in public administration helps to minimize corruption risks. Furthermore, the necessity of improving transparent governance mechanisms through the implementation of best practices is emphasized. The article also underlines that enhancing transparency and openness in modern governance is a crucial condition for sustainable development.



Keywords: *public administration, transparency, openness, corruption, accountability, public oversight, open data, digital governance, institutional reforms, access to information*

Аннотация: *В статье представлен аналитический обзор роли и значения принципов прозрачности и открытости в системе государственного управления для предотвращения коррупции. Открытая и подотчетная система управления не только укрепляет доверие общественности к органам власти, но и обеспечивает прозрачность процессов принятия решений. В статье подробно анализируются ключевые составляющие прозрачности, такие как свобода доступа к информации, политика открытых данных, общественный контроль и роль цифровых технологий. Также рассматриваются факторы, способствующие коррупции, и роль институциональных реформ в их минимизации. Исследование обосновывает, что повышение уровня открытости в государственном управлении способствует снижению коррупционных рисков. Кроме того, подчеркивается необходимость совершенствования механизмов прозрачного управления путем внедрения передовых практик. В заключение отмечается, что повышение открытости и прозрачности в современном управлении является важнейшим условием устойчивого развития.*

Ключевые слова: *государственное управление, прозрачность, открытость, коррупция, подотчетность, общественный контроль, открытые данные, цифровое управление, институциональные реформы, свобода доступа к информации.*

Hozirgi kunda axborot almashinuvi sharoitida davlat boshqaruvining samaradorligi va sifat darajasi har bir jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, korrupsiya kabi murakkab va ko‘p qirrali illat davlat va jamiyat rivojiga jiddiy to‘siq bo‘lib, ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga, iqtisodiy resurslarning samarasiz taqsimlanishiga hamda fuqarolarning davlat institutlariga bo‘lgan ishonchining pasayishiga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, davlat boshqaruvida shaffoflik va ochiqlikni ta‘minlash masalasi nafaqat dolzarb, balki strategik ahamiyat kasb etadi. Shaffoflik va ochiqlik – bu davlat organlari faoliyatining oshkoraligi, qaror qabul

qilish jarayonlarining aniq va tushunarli bo‘lishi hamda fuqarolarning axborotga erkin kirish imkoniyatining mavjudligi bilan ifodalanadi. Mazkur tamoyillar davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash, boshqaruv jarayonlarida hisobdorlikni ta‘minlash hamda korrupsion holatlarning oldini olishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Chunki yopiq va nazoratsiz tizimlarda korrupsiyaga moyillik yuqori bo‘lsa, aksincha, ochiq va shaffof muhitda noqonuniy harakatlar uchun imkoniyatlar keskin qisqaradi¹. Hozirgi

¹ O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvar, O‘RQ-419-son // O‘zbekiston



davrdavlat boshqaruvida ochiqlikni ta'minlash nafaqat ichki ehtiyoj, balki xalqaro talab darajasiga ham ko'tarilgan. Ko'plab mamlakatlarda ochiq ma'lumotlar siyosatini joriy etish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi choralar orqali shaffof boshqaruv tizimi shakllantirilmoqda. Bu jarayonlar fuqarolarning davlat boshqaruvida bevosita ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirib, ularning faolligini oshiradi hamda korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ijtimoiy omilga aylanadi. Shuningdek, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi shaffoflikni ta'minlashda yangi imkoniyatlarni yuzaga chiqarmoqda. Elektron hukumat tizimlari, onlayn xizmatlar va ochiq platformalar orqali davlat organlari faoliyati yanada oshkora tus olmoqda². Bu esa nafaqat boshqaruv jarayonlarini soddalashtiradi, balki inson omilini qisqartirish orqali korrupsion xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Davlat boshqaruvida shaffoflik va ochiqlikni ta'minlash jarayoni uzluksiz takomillashtirishni talab etadi. Mazkur yo'nalishda samarali mexanizmlarni joriy etish, huquqiy bazani mustahkamlash hamda fuqarolik jamiyati institutlarining

rolini oshirish muhim ahamiyatgaga ega. Zero, ochiq va shaffof boshqaruv tizimi nafaqat korrupsiyaning oldini olish, balki barqaror rivojlanish, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashning asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi³. Davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi ko'p jihatdan unda amal qilinayotgan tamoyillarning qanchalik puxta va izchil joriy etilganiga bog'liqdir. Shaffoflik va ochiqlik zamonaviy boshqaruvning eng muhim prinsiplari sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tushunchalar nafaqat boshqaruv jarayonining sifatini oshiradi, balki jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shaffoflik, avvalo, davlat organlari faoliyatining oshkoraligi, ularning qarorlari va harakatlari haqida aniq, to'liq hamda ishonchli axborot taqdim etilishi bilan ifodalanadi. Shaffoflikning mavjudligi qaror qabul qilishda subyektivlikni kamaytirib, adolatli va asosli boshqaruvni shakllantiradi. Ochiqlik tushunchasi esa shaffoflikka yaqin bo'lsa-da, o'ziga xos jihatlarga ega. Ochiqlik davlat boshqaruvida axborotga erkin kirish, fuqarolarning davlat organlari bilan o'zaro muloqotga kirishish imkoniyati hamda boshqaruv jarayonlarida ishtirok etish huquqi bilan belgilanadi. Ya'ni, agar shaffoflik bu davlat faoliyatining ko'rinib turishi bo'lsa, ochiqlik bu fuqarolarning ushbu jarayonlarda faol qatnashishi uchun

Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining
Axborotnomasi, 2017-yil, 1-son, 1-modda.

² O'zbekiston Respublikasining "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonuni, 2014-yil 5-may, O'QR-369-son.

³ O'zbekiston Respublikasining "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonuni, 2018-yil 12-aprel.



yaratilgan imkoniyatdir. Shu bois, ushbu ikki tushuncha o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Zamonaviy davlat boshqaruvida shaffoflik va ochiqlik tamoyillarini joriy etishning asosiy maqsadi – fuqarolar bilan davlat o'rtasida ishonchli va barqaror munosabatlarni shakllantirishdir⁴. Fuqarolar davlat organlari faoliyati haqida yetarli va haqqoniy ma'lumotga ega bo'lgan taqdirdagina ular tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar va amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Bu esa o'z navbatida jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Shaffoflik va ochiqlik tamoyillari davlat boshqaruvida hisobdorlikni kuchaytiradi. Hisobdorlik – bu mansabdor shaxslarning o'z faoliyati yuzasidan jamoatchilik va yuqori turuvchi organlar oldida javob berish majburiyatidir⁵. Mazkur mexanizm orqali davlat xizmatchilarining har bir harakati nazorat ostida bo'ladi va bu holat korrupsion xatti-harakatlarning oldini

olishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Chunki nazorat mavjud bo'lgan joyda qonunbuzarliklar sodir etish ehtimoli keskin kamayadi. Bundan tashqari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashda yangi bosqichni boshlab berdi. Elektron hukumat tizimlari, ochiq ma'lumotlar portallari hamda onlayn platformalar orqali davlat organlari faoliyati keng jamoatchilik uchun yanada ochiq bo'lib bormoqda. Bu holat boshqaruv jarayonlarini soddalashtiradi, balki inson omilini kamaytirish orqali korrupsion xavflarni pasaytirishga xizmat qiladi. Korrupsiya zamonaviy jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to'siq bo'layotgan murakkab ijtimoiy hodisalardan biri hisoblanadi. U iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatibgina qolmay, ijtimoiy adolatning buzilishiga, qonun ustuvorligining zaiflashishiga hamda davlat va jamiyat o'rtasidagi ishonchning pasayishiga olib keladi. Shu sababli korrupsiyaga qarshi kurashish har qanday davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Korrupsiya, asosan, mansab yoki vakolatlardan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanish orqali namoyon bo'ladi. Uning yuzaga kelishiga boshqaruv tizimidagi yopiq jarayonlar, axborot yetishmasligi, nazorat mexanizmlarining sustligi hamda mas'uliyatning pastligi sabab bo'ladi. Ayniqsa, davlat boshqaruvida shaffoflik va ochiqlikning yetarli darajada ta'minlanmagani korrupsiyaning kengayishiga zamin

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 2020-yil 29-iyun, PF-6013-son.

⁵ Rose-Ackerman S., Palifka B.J. Corruption and Government: Causes, Consequences, and Reform. 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2016. – 618 b.



yaratadi. Shaffoflik va ochiqlik korrupsiyaning oldini olishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ochiq boshqaruv sharoitida davlat organlari faoliyati jamoatchilik nazorati ostida bo'ladi. Bu esa noqonuniy harakatlar imkoniyatini cheklaydi. Davlat xaridlari, byudjet mablag'lari taqsimoti yoki muhim qarorlarning oshkora e'lon qilinishi korrupsion holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Hisobdorlik mexanizmlarining mavjudligi mansabdor shaxslarning mas'uliyatini oshiradi. Ularning faoliyati ustidan nazorat kuchaygani sari korrupsiyaga moyillik kamayadi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, xususan elektron davlat xizmatlari orqali inson omilining qisqarishi ham korrupsion xavflarni pasaytiradi. Jamoatchilik nazorati ham bu jarayonda alohida ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalari davlat organlari faoliyatini kuzatib boorish orqali ochiqlikni ta'minlaydi hamda turli qonunbuzarliklarni aniqlashga xizmat qiladi. So'nggi yillarda O'zbekistonda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, unda shaffoflik va ochiqlikni ta'minlashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu islohotlarning asosiy maqsadi davlat organlari faoliyatini zamon talablariga moslashtirish, fuqarolar uchun ochiq va hisobdor boshqaruv tizimini shakllantirish hamda korrupsiyaning oldini olishdan iborat. Xususan, "Ochiq ma'lumotlar" tizimining joriy etilishi

muhim qadamlardan biri bo'ldi. Ushbu tizim orqali davlat organlari o'z faoliyatiga oid turli ma'lumotlarni muntazam ravishda e'lon qilib boradi. Byudjet mablag'lari sarfi, davlat xaridlari, statistika ko'rsatkichlari kabi axborotlarning ochiqligi fuqarolarga nazorat qilish imkonini beradi hamda turli noqonuniy holatlarning oldini olishga xizmat qiladi. Davlat xizmatlarini ko'rsatishda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ham shaffoflikni oshirishda muhim rol o'ynamoqda⁶. Elektron hukumat tizimi orqali ko'plab xizmatlar onlayn shaklga o'tkazildi, bu esa inson omilini kamaytirib, korrupsion xavflarni sezilarli darajada qisqartirdi. Fuqarolarning davlat organlariga murojaat qilish jarayonlari ham soddalashtirildi va ochiq tus oldi. Davlat organlari faoliyatining ochiqligini ta'minlashga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ular orasida davlat hokimiyati organlari faoliyatining ochiqligi, axborotga erkin kirish hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga doir qoidalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu hujjatlar davlat organlarining jamiyat oldidagi hisobdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Korrupsiyaga qarshi kurashish

⁶ Abdullayev S.N. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining ahamiyati // Innovations in Technology and Science Education. – 2026. – Vol. 5, Issue 43. – B. 125–127.



yoʻnalishida ham alohida tizim shakllantirildi. Maxsus vakolatli organlarning tashkil etilishi, korrupsiyaga qarshi dasturlar va strategiyalarning ishlab chiqilishi bu sohadagi ishlarning tizimli yoʻlga qoʻyilganini koʻrsatadi. Bu esa davlat boshqaruvida halollik va shaffoflik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, davlat boshqaruvida shaffoflik va ochiqlikni taʼminlash bugungi kunda nafaqat boshqaruv samaradorligini oshirish, balki korrupsiyaning oldini olishning eng muhim va taʼsirchan omillaridan biri hisoblanadi. Ochiq va hisobdor boshqaruv tizimi mavjud boʻlgan jamiyatda davlat organlari faoliyati jamoatchilik nazorati ostida boʻladi, bu esa mansabdor shaxslarning oʻz vakolatlaridan noqonuniy foydalanish ehtimolini sezilarli darajada kamaytiradi. Shaffoflikning asosiy elementlari boʻlgan axborotga erkin kirish, ochiq maʼlumotlar tizimi, jamoatchilik ishtiroki va zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, davlat xizmatlarining

raqamlashtirilishi inson omilini qisqartirib, turli suisteʼmolliklar yuzaga kelishining oldini olishga yordam beradi. Oʻzbekistonda mazkur yoʻnalishda amalga oshirilayotgan islohotlar davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishda muhim bosqich boʻlib xizmat qiladi. Ochiq maʼlumotlar tizimining joriy etilishi, elektron hukumat xizmatlarining kengaytirilishi, shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan huquqiy va institutsional choralar jamiyatda ochiqlik muhitini shakllantiradi. Biroq, shaffoflikni taʼminlash jarayoni doimiy takomillashtirishni talab etadi. Bu borada nafaqat davlat organlari, balki fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari va har bir fuqaroning faolligi muhim ahamiyatga ega. Faqatgina oʻzaro hamkorlik va masʼuliyat asosida korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boorish mumkin. Shunday ekan, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish jamiyatda adolat, qonun ustuvorligi va ishonch muhitini shakllantiradi. Bu oʻz navbatida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning mustahkam poydevori boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish toʻgʻrisida”gi Qonuni, 2017-yil 3-yanvar, OʻRQ-419-son // Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2017-yil, 1-son, 1-modda.
2. Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi toʻgʻrisida”gi Qonuni, 2014-yil 5-may, OʻRQ-369-son.
3. Oʻzbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati toʻgʻrisida”gi Qonuni, 2018-yil 12-aprel.



4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 29-iyun, PF-6013-son.